



## INGLIZ TILINI O'QITISHDA TURLI XIL METODLAR, ULARNING AHAMIYATI HAMDA FOYDALANISH SHARTLARI

---

*Suvanova Oydin*

*O'zDJTU, ingliz tili 2- fakulteti*

*23.04- guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz tilini yosh o'quvchilarga chuqurlashtirib o'rgatishdagi turli xil metodlarni hamda ularning darslar davomidagi ahamiyatini qamrab olgan holda to'g'ri va maqsadli foydalanish usullarini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion usullar, test tizimi, kartochkalar, muammoli vaziyat, "klaster" usuli


Bugungi tobora rivoj topayotgan zamonda barchamizga ma'lumki, til muloqot hamda aloqa vositasi hisoblanadi shu tufayli kundan kunga tilni rivojlantirish uchun, aholi orasida til bilish darajasini yaxshilash uchun ko'plab amaliy choralar qo'llanib kelinmoqda va katta miqdorda mablag' sarflangan holda oddiy fuqarolar ayniqsa yoshlar o'rtasida mukammal darajada targ'ib qilinmoqda. Bundan tashqari turli tillarni bilgan insonlarga ta'limda, bandlikda, jamiyat orasida ham turli diqqatga sazovor imtiyozlar hamda yengilliklar yaratilmoqda, jumladan, chet tili sertifikatlari bor yoshlar uchun nafaqat o'zimizning respublikada balki dunyo miqyosidagi nufuzli davlat universitetlariga grantlar ajratilmoqda va davlat tomonidan barcha moddiy xarajatlar ta'minlab berilmoqda. Shularni inobatga olgan holda, hozirgi kunda bog'cha va maktab yoshidan boshlab bolalarga xorijiy tillarni ayniqsa ingliz tilini o'rgatish talab qilinmoqda hamda bu uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda xususan bir necha yillardan buyon respublika miqyosida ta'lim tizimida tubdan islohotlar olib borilmoqda ya'ni o'qitish tizimi yangilanganligi, darsliklardagi o'zgarishlar chet tillarga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasi bo'la oladi. Aslida bularning barchasi o'quvchilar miyasini charxlash, ularni mantiqiy fikrlashga undash bu orqali dunyo standartlarida bellasha oladigan yoshlar qilib tarbiyalash ko'zda tutilgan shu bilan birgalikda biz bularning safiga ingliz tili darslarini o'tish davomida turli xil metodlarni qo'llashni ham kirita olamiz. Bulardan birinchisi:

Test tizimiga asoslangan o'qitish ya'ni barchamizga ma'lumki, "Takrorlash-bilim asosi" deb bejiz aytilmaydi testlar tizimi esa aynan shu takrorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Darslar, kurslar davomida olinadigan nazorat testlari o'tilgan mavzular yuzasidan tuzilgan bo'ladi hamda bizning bilimimizni mustahkamlashga



yordam beradi shu bilan birgalikda, A, B, C, D kabi 4 xil variantlar orqali nafaqat takrorlashga balki o'quvchilarning miya faoliyati, mantiqiy o'ylash va fikrlash sifatlarini ham shakllantirib, rivojlantira oladi. Qo'shimcha tarzda ko'rishimiz mumkin, ko'plab o'qituvchilar o'tilgan mavzu yuzasidan talabalarga ularning zukkoligini baholash, qay darajada yaratuvchan ekanligini, mavzuni qanchalik ideal tarzda o'zlashtirganligini, tuzilgan testlarda mayda detallargacha kuzata bilishi bilan e'tiborliligini baholay oladi hamda ularning ushbu jihatlarini ochish orqali rivojlantiradi.

Bundan tashqari til o'rganishda yana bir muhim jihatlardan biri bu o'quvchining shaxsiy fikrini inobatga olgan holda unga o'z usulini, o'z yo'lini tanlashga imkon yaratib berishdir sababi inson qachongina o'zini erkin his qilsa, shundagina qiynalmagan holda biror tilni mukammal darajada o'rgana oladi. Bunga bog'liq bo'lgan metodlardan biri bu "klaster" usulidir ya'ni ushbu metod pedagogik strategiyalardan biri bo'lib, til o'rganayotgan o'quvchilarga ma'lum bir mavzu yuzasidan ochiq hamda erkin fikrlashga, o'zining mustaqil fikrini bema'lol bayon etish uchun imkoniyat yarata oladi. Shu bilan birgalikda, ushbu "klaster" metodi talaba yoshlarni yaratuvchanlikka va turli g'oyalar o'rtasidagi bog'liqlikni, aloqalarni, farqlarni teran anglashga yordam beradi. Quyida uning namunasi:





Ushbu metoddan foydalanish miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan boʻliq holda amalga oshadi va keyinchalik ham uning mantiqiy-tanqidiy fikrlashining rivojlanishiga hissa qoʻsha oladi. Shu sababli dars jarayonida keng miqyosda “klaster” metodidan foydalanilmoqda.

Navbatdagi metod turli turdagi rasmlar bilan ishlash metodi boʻlib, eng qulay hamda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Uni tashkil qilish uchun avvalambor, ayni mavzuga aloqador rasmlar shuningdek, boshqa koʻrgazmali qurollar tarqatiladi yoki namoyish etiladi, soʻngra oʻquvchi oʻz fikrini, tushunchalarini bayon qiladi bu yoʻl bilan birinchidan, til oʻrganuvchilarning xorijiy tilda soʻzlash qobiliyatini hamda ogʻzaki nutqini omma oldida bayon qilishga, ikkinchidan, soʻzlashdagi tezligini va aniqligini rivojlantirishga imkon yaratadi. Qoʻshimcha qilib aytadigan boʻlsak, ushbu usulning yana bir foydali jihatlaridan biri shuki, barcha yoshdagi oʻrganuvchilar uchun mos va tushunarli boʻlishidir ayniqsa boshlangʻich taʼlimdagi hamda bogʻcha yoshidagi bolalar uchun, sababi ularning miya faoliyati hamda psixologiyasida rang-barang narsalarga qiziqish va koʻrgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanganligidadir. Bu kabi usullardan foydalanish esa ularning diqqatini darsga qaratish, uni davomiy ushlay olishga imkon beradi.

Agar oʻquvchilarning ravonligi buziladigan boʻlsa u holda koʻproq mashq qilishi shuningdek, oynaga qaragan holatda ingliz tilida nutq soʻzlashi tavsiya etiladi bundan tashqari ravonlikka soʻz boyligi ham taʼsir qilishini hisobga oladigan boʻlsak, u paytda koʻproq soʻz yodlashi hamda uni kundalik hayotda ishlatishga harakat qilishi tavsiya etiladi. Shundagina bu metodning samarasini koʻra olishimiz mumkin boʻladi.

Elektron axborot vositalaridan foydalanish ham aynan hozirgi davrimiz uchun qoʻllanilgan eng foydali usullardan biri hisoblanadi masalan, turli chet tilidagi videoroliklar, kinolar hamda ularning izoh qismi bilan darslar davomida namoyish etish ham ingliz tilini oʻrganishga bir muncha hissa qoʻshgan boʻladi chunki bu yoʻl bilan oʻquvchi yoki talabalarning tinglab tushunish qobiliyatini shakllantira olamiz shuningdek ular materiallarni tahlil qilish orqali soʻzlar talaffuzini, ulardagi yozilishi va aytilishi farqlarini, haqiqiy ingliz odamini nutqini eshitish bilan oʻzidagi kamchilik va xatolarni ham tuzatish imkoni yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, davr rivojlanishi bilan har bir sohada ham bir qancha oʻzgarishlar yuzaga kela boshlaydi, yuqorida taʼkidlanganidek chet tillar, xususan ingliz tilini oʻrganish hoziri kundagi yutuqlarimizdan biri boʻlib qolmoqda. Shu tufayli, ushbu jabhada, uni chuqur egallashda har bir metodning, har bir usulning



alohida ahamiyati bor hamda turli metodlar insondagi turli ko'nikmalarni rivojlantirishi tufayli ularning barchasini qunt bilan o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, xorijiy til darslaridagi sifatni yaxshilash uchun o'rganuvchilarning ham, dars beruvchilarning ham bir-birini tushuna bilishi, e'tiborliroq hamda ko'proq qunt, ishtiyoq bilan yondashishi talab etiladi. Darsdan bo'sh vaqtlarda esa davlat resurslaridan foydalanish ya'ni ma'lum sohadagi mutaxassislarni taklif qilish, ular va o'quvchilar o'rtasida davra suhbatlari tashkil qilish ham til o'rganish jarayonida foydali bo'lishi mumkin chunki ular o'zlarining tajribalaridan kelib chiqib yoshlarga maslahatlar bera oladi va albatta, bu o'z navbatida ularga motivatsiya bo'lishi, ruhlantirishi mumkin, hozirgi kunda aksariyat ta'lim beruvchilar shu orqali o'rganuvchilarda yanada qiziqish uyg'otmoqda hamda kelgusida turli yutuqlarga erishmoqda/.

#### **Adabiyotlar:**

“O'zMU xabarleri” ilmiy jurnali

Science and Innovation International Scientific Journal

International Scientific Conference, December 2021

<https://uz.m.wikipedia.org>

SCIENTIFEC PROGRESS” Scientifec Journal